



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSII BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	



ISLOM MOLİYASI TAMOIYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Kenjaeva Durdona Ravshan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0002-6412-083X

Email: kenjaevadurdona1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom moliyasining asosiy tamoyillari va ularning iqtisodiy mazmuni tahlil qilinadi. Xususan, riboni, g'orar va maysirni cheklash, risk va foydani taqsimlash hamda moliyaviy operatsiyalarning real aktivlar bilan bog'liqligi kabi tamoyillarning moliyaviy munosabatlarga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijasida islomiy moliya instrumentlarini faqat islom moliyasiga muvofiqligi yoki an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlari asosida emas, balki asosiy tamoyillarning amaliy realizatsiyasi va uning iqtisodiy natijalari asosida baholash zarurligi asoslanadi. Islom moliyasidagi cheklovlar iqtisodiy faoliyatni cheklaydimi yoki moliyaviy resurslarni real iqtisodiyotga yo'naltirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladimi, degan savolga javob beradi va shu maqsadda "tamoyil-instrument-iqtisodiy natija" o'zaro bog'liqligiga asoslangan baholash yondashuvi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islomiy bank xizmatlari, ribo, g'orar, maysir, risklarni taqsimlash, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, islomiy moliya instrumentlari.

Аннотация: В данной статье анализируются основные принципы исламских финансов и их экономическое содержание. В частности, исследуется влияние таких принципов, как ограничение рибы, гарара и майсира, распределение рисков и прибыли, а также связь финансовых операций с реальными активами, на финансовые отношения. По результатам исследования обосновывается необходимость оценки исламских финансовых инструментов не только на основе их соответствия принципам исламских финансов или традиционных финансовых показателей, но и с учётом практической реализации основных принципов и её экономических результатов. Рассматривается вопрос о том, ограничивают ли существующие в исламских финансах ограничения экономическую деятельность или, напротив, способствуют устойчивому экономическому росту посредством направления финансовых ресурсов в реальный сектор экономики. В этих целях предлагается подход к оценке, основанный на взаимосвязи «принцип — инструмент — экономический результат».

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банковские услуги, рибя, гарар, майсир, распределение рисков, финансирование на основе активов, финансовая стабильность, экономическая эффективность, инструменты исламских финансов.

Abstract: This article analyzes the fundamental principles of Islamic finance and their economic substance. In particular, it examines the impact of such principles as restrictions on riba, gharar, and maysir, risk and profit sharing, and the linkage of financial transactions to real assets on financial relations. The study substantiates the need to evaluate Islamic financial instruments not only on the basis of their compliance with Islamic finance principles or conventional financial indicators but also by considering the practical implementation of the fundamental principles and their economic outcomes. It addresses the question of whether the restrictions inherent in Islamic finance constrain economic activity or, alternatively, contribute to sustainable economic growth by directing financial resources toward the real economy. To this end, an evaluation approach based on the interrelationship of "principle-instrument-economic outcome" is proposed.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking services, riba, gharar, maysir, risk sharing, asset-based financing, financial stability, economic efficiency, Islamic financial instruments.

KIRISH

Zamonaviy moliya tizimining barqaror faoliyatiga ortiqcha qarzдорlik, yuqori spekulativ operatsiyalar, shartnomalardagi axborot noaniqligi, risklarning tomonlar o'rtasida nomutanosib taqsimlanishi hamda moliyaviy operatsiyalarning real iqtisodiy faoliyatdan uzilib qolishi kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Islom moliyasining asosiy tamoyillari aynan shu turdagi iqtisodiy va moliyaviy xatarlarni cheklashga qaratilgan



mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, riboning taqiqlanishi daromadning faqat qarz va oldindan belgilangan foiz hisobiga shakllanishini cheklab, moliyalashtirishni savdo, ijara yoki investitsiya kabi real iqtisodiy operatsiyalar bilan bog'lashga xizmat qiladi. G'orarning cheklanishi esa shartnoma predmeti, narxi, muddati va tomonlarning majburiyatlarida haddan tashqari noaniqlikka yo'l qo'ymaslik orqali axborot assimetriyasi, shartnomaviy nizolar va operatsion risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Maysirning taqiqlanishi iqtisodiy qiymat yaratishdan ko'ra tasodifga asoslangan daromad olishni cheklaydi. Islom moliyasining yana bir muhim xususiyati – moliyalashtirishning real aktiv va real iqtisodiy faoliyat bilan bog'liqligidir. Mudaraba va mushoraka kabi sheriklik instrumentlarida esa foyda va riskni taqsimlash tamoyili moliyalashtiruvchi tomonning iqtisodiy natijadan butunlay ajralib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada kapital egasi va tadbirkor manfaatlarini o'zaro yaqinlashtirish hamda riskning faqat bir tomon zimmasiga yuklanishini cheklash imkoniyati yuzaga keladi.

Shunday qilib, islom moliyasi tamoyillarini faqat diniy-huquqiy cheklovlar sifatida baholash ularning iqtisodiy mazmunini to'liq ochib bermaydi. Ribo, g'orar va maysirni cheklash, real aktivlarga bog'liqlik hamda risk va foydani taqsimlash tamoyillari mos ravishda ortiqcha qarzdorlik, axborot noaniqligi, spekulativ risk, moliyaning real sektordan uzilishi va risklarning nomutanosib taqsimlanishi kabi xatarlarni cheklashga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tamoyillarning amaliy ahamiyati global islom moliyasi bozorining kengayishi fonida yanada ortmoqda. ICD-LSEG ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global islom moliyasi aktivlari 5,98 trillion AQSh dollariga yetib, bir yil davomida 21 foizga o'sgan.¹ Bunday o'sish islom moliyasi tamoyillariga asoslangan bank, sukuk, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy instrumentlarning xalqaro moliya tizimidagi iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi tadqiqotlarda islom moliyasining fundamental tamoyillari bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ribo, g'orar va maysirni cheklash, moliyaviy operatsiyalarni real aktivlar bilan bog'lash hamda foyda va riskni taqsimlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, M. Safiullah (2021) 28 mamlakatdagi islomiy va an'anaviy banklarning moliyaviy barqarorlik samaradorligini qiyosiy tahlil qilib, islomiy banklarda mazkur ko'rsatkich o'rtacha yuqoriroq ekanligini aniqlagan.²

Muallif natijalarni islomiy moliyaning real iqtisodiy operatsiyalar bilan bog'liqligi, spekulativ faoliyatga qo'yilgan cheklovlar va risklarni taqsimlash xususiyatlari bilan izohlaydi. Tadqiqot 94 ta islomiy va 94 ta an'anaviy bankni, jami 188 bankni, 2003–2018-yillar davomida qamrab olgan. Natijada islomiy banklarning "meta-stability efficiency" ko'rsatkichi an'anaviy banklarnikidan 5,30% yuqori ekanligi aniqlangan. M. Izzeldin, J. Johnes, S. Ongena, V. Pappas va M. Tsionas (2021) 23 mamlakatdagi islomiy va an'anaviy banklarning samaradorligini qiyoslab, ikki model o'rtasidagi farq mutlaq emasligini aniqlagan.³ Ushbu natija islomiy bankning islom moliyasi tamoyillariga asoslanganligi uning iqtisodiy samaradorligini avtomatik ravishda ta'minlamasligini ko'rsatadi. N.A. Surury, Nurwahidin va I.A. Nafisah (2025) islomiy va an'anaviy moliya tizimlarini qiyoslab, an'anaviy moliyaning mahsulotlar xilma-xilligi, moslashuvchanligi va keng infratuzilmasini uning ustun tomonlari sifatida ko'rsatgan⁴. Islomiy moliyada esa risklarni taqsimlash, aktivlarga asoslangan operatsiyalar va axloqiy cheklovlar tizimning asosiy farqlovchi xususiyatlari sifatida baholangan. Mualliflar ikki tizimning ayrim afzalliklarini uyg'unlashtirish moliyaviy inklyuzivlik va barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini qayd etadilar.

O'zbekistonda islom moliyasining fundamental tamoyillariga bag'ishlangan ilmiy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar ham so'nggi yillarda faollashmoqda. A. Jumayev (2024) islom moliyasining asosiy tamoyillari va ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilib, ribo taqiqi, foyda va riskni taqsimlash hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni islomiy moliyaning muhim xususiyatlari sifatida yoritadi⁵. Muallif murobaha, ijara, mudaraba va boshqa instrumentlarning mazmunini o'rganib, ularni O'zbekiston moliya bozoriga moslashtirishda huquqiy va institutsional sharoitning muhimligini qayd etadi. M. Abduqodirova (2025) islomiy moliyada "leverage" masalasini an'anaviy moliya bilan qiyoslab o'rganadi. Tadqiqotda ribo taqiqi, islom moliyasiga muvofiqlik, sukuk, murobaha, mushoraka, ijara va risk-sharing mexanizmlarining qarz

1 https://www.lseg.com/en/data-analytics/islamic-finance/islamic-market-intelligence/islamic-finance-development-report-2025?utm_source

2 **Safiullah M.** Financial stability efficiency of Islamic and conventional banks // *Pacific-Basin Finance Journal*. - 2021. Vol. 68. Article 101587. DOI: 10.1016/j.pacfin.2021.101587.

3 **Izzeldin M., Johnes J., Ongena S., Pappas V., Tsionas M.** Efficiency convergence in Islamic and conventional banks // *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*. 2021. Vol. 70. Article 101279. DOI: 10.1016/j.intfin.2020.101279.

4 Surury N.A., Nurwahidin, Nafisah I.A. Comparison of Islamic and Conventional Financial Systems: Advantages, Disadvantages and Integration Prospects // *International Journal of Integrative Research*. 2025. Vol. 3, No. 2. P. 91–102. DOI: 10.59890/ijir.v3i2.319.

5 Jumayev A. Islom moliyasining asosiy tamoyillari va O'zbekistonda tatbiq qilish // *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*. – 2024. – Vol. 2, Issue 12. – B. 351–358. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.journal-science-innovative.62251.



mablag'laridan foydalanish modeliga ta'siri tahlil qilingan⁶. Mazkur ishning ahamiyatli jihati islomiy va an'anaviy moliyadagi moliyaviy leverage bir xil iqtisodiy maqsadga – kapital jalb qilishga xizmat qilishi mumkin bo'lsa-da, uning shakllanish mexanizmi va ruxsat etilgan chegaralari turli tamoyillarga asoslanishini ko'rsatishidir. Mahalliy tadqiqotlarning umumlashtirilishi shuni ko'rsatadiki, mavjud ishlarda islom moliyasi tamoyillarining nazariy mohiyati va O'zbekistonda joriy etish imkoniyatlari yetarlicha yoritila boshlagan. Biroq har bir islomiy tamoyil qaysi iqtisodiy xatarni cheklashi, qaysi moliyaviy instrument orqali amalga oshishi va uning natijasini qanday iqtisodiy ko'rsatkich bilan baholash mumkinligi masalasi kompleks tizim sifatida yetarlicha ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, kontent-tahlil va deskriptiv statistik tahlil usullaridan kompleks foydalaniladi. Qiyosiy tahlil orqali an'anaviy va islomiy moliya tizimlarining kapitaldan daromad olish, riskni boshqarish, shartnomaviy noaniqlikka munosabat, moliyaviy operatsiyalarning real aktivlar bilan bog'liqligi hamda investitsion cheklovlari o'zaro taqqoslanadi. Bunda ikki tizimning faqat farqli jihatlari emas, balki kapitalni samarali joylashtirish, risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash kabi umumiy iqtisodiy maqsadlari ham aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

An'anaviy va islomiy moliya tizimlari kapitalni iqtisodiyotga yo'naltirish, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish, risklarni boshqarish hamda moliyaviy vositachilikni amalga oshirish kabi umumiy iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Biroq ushbu maqsadlarga erishishda qo'llaniladigan tamoyillar va moliyaviy mexanizmlar bir-biridan farq qiladi. An'anaviy moliyada kapital qiymati, risk va kutilayotgan daromad o'rtasidagi bog'liqlik hamda diversifikatsiya muhim o'rin tutsa, islom moliyasida ushbu iqtisodiy maqsadlar Islom moliyasi talablaridan kelib chiqadigan ribo, g'orar va maysir cheklovlari, real aktivga bog'liqlik hamda tegishli holatlarda foyda va riskni taqsimlash kabi qo'shimcha talablar doirasida amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqib, islom moliyasi tamoyillarining iqtisodiy samaradorligini baholashda tamoyilning mavjudligi emas, uning moliyaviy instrument orqali qanday amalga oshirilishi va qanday iqtisodiy natija bilan bog'lanishi asosiy mezon bo'lishi lozim (1-jadval).

1-jadval. Islom moliyasining “tamoyil – instrument – iqtisodiy xatar – natija” matritsasi⁷

Fundamental tamoyil	Amalga oshiruvchi instrumentlar	Cheklanishi ko'zda tutiladigan iqtisodiy xatar	Kutiladigan iqtisodiy ta'sir	Baholash mumkin bo'lgan indikator
Riboning taqiqlanishi	Murabaha, ijara, mushoraka, mudaraba, sukuk	Qarz bo'yicha foiz yukining oshishi va qarzga haddan tashqari tayanish	Moliyalashtirishni savdo, aktiv va investitsiya bilan bog'lash	Debt/Asset, moliyalashtirish/YaIM, qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari
G'orarni cheklash	Shartlari aniq murabaha, ijara, salam, istisna va boshqalar	Haddan tashqari shartnomaviy noaniqlik, ayrim axborot assimetriyasi va nizolar	Shartnomaviy aniqlik va shaffoflikning oshishi	Nizoli shartnomalar ulushi, operatsion yo'qotishlar, disclosure ko'rsatkichlari
Maysirning taqiqlanishi	Real savdo va investitsiyaga asoslangan instrumentlar	Sof tasodifiy yutuq va haddan tashqari spekulativ tavakkalchilik	Moliyaviy resurslarni real iqtisodiy faoliyatga yo'naltirishga ko'maklashish	Real sektor moliyalashtirish ulushi, spekulativ aktivlar ekspozitsiyasi
Real aktivga bog'liqlik	Murabaha, ijara, salam, istisna, aktivga asoslangan sukuk	Moliyaviy operatsiyaning real iqtisodiy faoliyatdan uzilishi	Savdo, ishlab chiqarish va investitsiya bilan moliyaviy oqimlar aloqasini kuchaytirish	Real sektor moliyalashtirish/aktivlar, investitsiya/YaIM
Foyda va riskni taqsimlash	Mushoraka, mudaraba	Riskning bir tomon zimmasiga nomutanosib yuklanishi; qarzga ortiqcha tayanish	Investor va tadbirkor manfaatlarini yaqinlashtirish	PLS moliyalashtirish ulushi, loyiha rentabelligi, zararlar taqsimoti
Islom moliyasiga muvofiq investitsiya	Sukuk, Islom moliyasiga mos fondlar va investitsiyalar	Ijtimoiy jihatdan taqiqlangan faoliyatlarni moliyalashtirish	Kapital oqimiga qo'shimcha axloqiy-investitsion filtr kiritish	Islom moliyasiga mos aktivlar ulushi, sektorlar bo'yicha moliyalashtirish

6 Abduqodirova M.A. Leverage in Islamic Finance: Principles, Practice, and Lessons for Uzbekistan // Academic Research in Modern Science. 2025. Vol. 4, No. 34. P. 68–76. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.arims.105934.

7 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar, AAOIFI va IFSB yondashuvlarini qiyosiy umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.



Islom moliyasi tamoyillarini faqat “ruxsat etilgan–taqiqlangan” mezonida baholashdan yiroqmiz. Masalan, bankning ribo talablariga rioya qilishi uning moliyalashtirish portfeli avtomatik ravishda real iqtisodiyot uchun samarali ekanligini anglatmaydi. Buni aniqlash uchun moliyalashtirishning qaysi qismi ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar va investitsion loyihalarga yo'naltirilganini ham baholash kerak. IFSB hisob-kitoblariga ko'ra, global islomiy moliyaviy tamoyillar asosidagi xizmatlar sanoati aktivlari 2020-yildagi 2,70 trln dollardan 2024-yilda 3,88 trln dollarga yetgan. Bu besh yilda qariyb 43,7 foizlik o'sish demakdir. 2024-yilning o'zida o'sish sur'ati 14,9 foizni tashkil etgan⁸ (2-jadval).

2-jadval. Global islomiy tamoyillar asosidagi moliyaviy xizmatlar sanoatining rivojlanish dinamikasi⁹

Yil	IFSI aktivlari, trln AQSh dollari	Oldingi yilga nisbatan o'zgarish
2020	2,70	—
2021	3,06	+13,3%
2022	3,25	+6,2%
2023	3,38	+4,0%
2024	3,88	+14,9%

Jadvaldan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda islomiy moliyaviy xizmatlar sanoatida uzluksiz o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2024-yilda o'sishning tezlashishi mazkur tizimga asoslangan moliyaviy xizmatlarga talab va bozor faolligining ortganligini ko'rsatadi. Biroq bu natijalarni ribo, g'oror yoki maysir cheklovlar o'sishga bevosita sabab bo'ldi, deb talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Statistik ma'lumotlar tamoyillarning iqtisodiy samaradorligini sababiy isbotlamaydi, balki ularga asoslangan moliyaviy tizimning amaliy miqyosi sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Islomiy banklar iqtisodiyotda turlicha salmoqqa ega mamlakatlarning makroiqtisodiy natijalarini qiyoslash ushbu masalaga chuqurroq baho berish imkonini beradi. Ammo islomiy moliyaning yuqori ulushi iqtisodiy o'sish sur'atining avtomatik ravishda yuqori bo'lishini anglatmaydi (3-jadval).

3-jadval. Islomiy banklarning bozor ulushi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari¹⁰

Mamlakat	Islomiy banklarning jami bank aktivlaridagi ulushi, 2024 Q3	5 yillik islomiy bank aktivlari CAGR	2024-yil real YaIM o'sishi
Eron	100,0%	—	3,7%
Saudiya Arabistoni	75,3%	14,5%	2,0%
Malayziya	33,2%	8,1%	5,1%
Pokiston	18,7%	13,2%	~2–3%

Masalan, Eronda bank aktivlarining 100 foizi islomiy bank tizimiga tegishli bo'lsa-da, 2024-yilda real YaIM o'sishi 3,7 foizni, inflyatsiya esa 32,5 foizni tashkil etgan. Saudiya Arabistonida islomiy banklarning ulushi 75,3 foiz bo'lgan holda, iqtisodiy o'sish 2,0 foiz, Malayziyada esa islomiy banklarning ulushi nisbatan pastroq – 33,2 foiz bo'lishiga qaramay, real YaIM 5,1 foizga o'sgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom moliyasining iqtisodiy samaradorligini mamlakatdagi islomiy bank aktivlarining ulushi bilan bevosita tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Islomiy moliya tamoyillari iqtisodiy o'sishga moliyaviy resurslarning real sektorga yo'naltirilishi, investitsiyalarni moliyalashtirish, risklarning boshqarilishi va moliyaviy inklyuzivlik kabi oraliq kanallar orqali ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli islomiy moliyaning iqtisodiy samaradorligini baholashda uning bozor ulushi bilan bir qatorda investitsiya faolligi, moliyalashtirish hajmi, aktivlar sifati, bank barqarorligi va makroiqtisodiy muhitni kompleks hisobga olish zarur.

Birinchidan, islomiy moliya mahsulotlari uchun “Islom moliyasiga muvofiqlik va iqtisodiy natijadorlik” ikki bosqichli baholash tizimini joriy etish taklif qilinadi. Birinchi bosqichda mahsulotning ribo, g'oror, maysir, aktivga bog'liqlik va boshqa Islom moliyasi talablariga muvofiqligi baholansa, ikkinchi bosqichda uning real sektorni moliyalashtirish, aktivlar sifati, rentabellik, risk va investitsion faollikka ta'siri o'lchanishi lozim. Bu yondashuv

⁸ IFSB, *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025*

⁹ Manba: IFSB, *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025* ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁰ Manba: IFSB, *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025*; World Bank, *World Development Indicators*.



islomiy moliya mahsulotining faqat huquqiy-diniy shaklini emas, uning iqtisodiy mazmunini ham baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, “Tamoyil–instrument–iqtisodiy xatar–natija” monitoring matritsasini bank amaliyotiga moslashtirish taklif etiladi. Masalan, real aktivga bog‘liqlik tamoyili bo‘yicha real sektor moliyalashtirishining jami islomiy moliyalashtirishdagi ulushi; risk-sharing bo‘yicha mudaraba va mushorakaning jami portfeldagi ulushi; iqtisodiy natijadorlik bo‘yicha esa muammoli moliyalashtirish, rentabellik va moliyalashtirilgan loyihalar natijadorligi kuzatilishi mumkin. Bu tamoyillarning amalda qanday iqtisodiy natija berayotganini vaqt davomida kuzatishga imkon yaratadi. Mazkur takliflarning umumiy maqsadi islom moliyasi tamoyillarini iqtisodiy faoliyatga qo‘yilgan cheklolar majmui sifatida emas, balki moliyaviy resurslarning shakllanishi va taqsimlanish mexanizmini o‘zgartiruvchi iqtisodiy institutlar sifatida baholashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safiullah M. Financial stability efficiency of Islamic and conventional banks // *Pacific-Basin Finance Journal*. - 2021. - Vol. 68. -Article 101587. - DOI: 10.1016/j.pacfin.2021.101587.
2. Izzeldin M., Johnes J., Ongena S., Pappas V., Tsionas M. Efficiency convergence in Islamic and conventional banks // *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*. - 2021. - Vol. 70. - Article 101279. DOI: 10.1016/j.intfin.2020.101279.
3. Surury N.A., Nurwahidin, Nafisah I.A. Comparison of Islamic and Conventional Financial Systems: Advantages, Disadvantages and Integration Prospects // *International Journal of Integrative Research*. 2025. - Vol. 3, No. 2. - P. 91-102. - DOI: 10.59890/ijir.v3i2.319.
4. Jumayev A. Islom moliyasining asosiy tamoyillari va O‘zbekistonda tatbiq qilish // *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*. -2024. Vol. 2, Issue 12.-B. 351-358. - DOI: 10.71337/inlibrary.uz.journal-science-innovative.62251.
5. Abduqodirova M.A. Leverage in Islamic Finance: Principles, Practice, and Lessons for Uzbekistan // *Academic Research in Modern Science*.2025. Vol. 4, No. 34. -P. 68-76. - DOI: 10.71337/inlibrary.uz.arims.105934.
6. Obidov N. O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar // *Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2025.-Vol. 2, Issue 3.-P. 288-299. -DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp288-299.
7. Abdullayev A., Chirmashev A. Islom moliyasini O‘zbekistonda joriy etish tamoyillari // Лучшие интеллектуальные исследования. - 2025.-Vol. 57, No. 1. – P. 196–205.
8. Sattorov I., Karimov S. O‘zbekistonda islom moliyasi: muammolar va rivojlanish istiqbollari // *Green Economy and Development*. -2025. -Vol. 3, No. 12.-DOI: 10.5281/zenodo.17813172.
9. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025.-Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board, 2025.
10. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari’ah Standards. - Manama, Kingdom of Bahrain: AAOIFI.
11. Islamic Financial Services Board (IFSB). Standards, Guiding Principles and Technical Notes for the Islamic Financial Services Industry. - Kuala Lumpur: IFSB.
12. World Bank. World Development Indicators. -Washington, D.C.: World Bank. - Elektron statistik ma’lumotlar bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari. -Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik axborot-ta’lim resursi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>